

NARIMON RAJAPOV,
RUSTAM BOLTAYEV

ISTIQLOL NASHIDASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Nariman Rajapov, Rustam Boltayev

ISTIQLOL NASHIDASI

(uslubiy qo'llanma)

*Ushbu uslubiy qo'llanma UrDU ilmiy-uslubiy kengashining 2015-yil 15-ap-
reldagi 7-sonli yig'ilishi qaroriga binoan nashr etishga tavsiya etilgan.*

Urganch – 2015

UDK: 781.2(072)

KBK: 85.315.3(50')

R17

Nariman Rajapov, Rustam Boltayev. Istiqlol nashidasi. Uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir **M. Nurmatova.** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti. Urganch, UrDU noshirlik bo'limi, 2015-yil. 112 bet.

KBK 85.315.3(50')ya7

Maskur qo'llanma madaniyat va san'at kollejlari, bolalar musiqa va san'at maktablari, an'anaviy ijrochilik, qashqar rubobi va an'anaviy xonandachilik bo'limi o'quvchilari hamda oliy o'quv yurti "Musiqa ta'limi" yo'nalishi "Cholg'u ijrochiligi va ansambli" fani uchun qo'shimcha adabiyot sifatida qo'llanilishi mumkin. Mustaqillik yillarida Vatanni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar ijodkori ustoz san'atkor, mohir sozanda, havaskor bastakor Nariman Rajapov ijodiga bag'ishlangan bo'lib, unda u yaratgan asarlar o'rin olgan.

Mas'ul muharrir

M. Nurmatova, UrDU filologiya va san'at fakulteti
"Musiqa ta'limi" kafedrasini mudiri.

Taqrizchilar:

S. Xudayberganov, UrDU filologiya va san'at fakulteti
"Musiqa ta'limi" kafedrasini dotsenti,
D. Tillayev, Urganch san'at kolleji xalq cholg'u asboblari kafedrasini mudiri.

ISBN: 978-9943-4516-8-1

© UrDU noshirlik bo'limi, 2015.

© **Nariman Rajapov, Rustam Boltayev.**
Istiqlol nashidasi. Uslubiy qo'llanma.

SO‘Z BOSHI

Insoniyat hayotining mazmuni uning ijodiyot mahsuli bilan o‘lchanadi. Qaysi xalqning o‘tmishi uzoq, ma’naviyati boy, merosi barhayot bo‘lsa, albatta, bu xalqning istiqboli buyuk, kelajak avlodi esa barkamol bo‘ladi.

Ijod – hayotni go‘zallashtiruvchi, olam sir-u asrorlarini ochuvchi, insoniyat tafakkurini anglatuvchi ne‘mat. U juda ko‘p, keng tarmoqlarga bo‘linadi. Lekin ularning hammasi bir asosiy mezonga, ya’ni tabiat va unga bo‘lgan munosabatga asoslanadi. Uning zaminida esa ishq, nafosat, ishonch hamda tafakkur o‘ziga xos uyg‘unlikka erishib, jonli jarayonda o‘z mo‘jizasini kashf etadi. Jumladan, musiqa ham mo‘jizakor san’at bo‘lib, ijodiyotning estetik jihatdan boy imkoniyatlarga ega bo‘lgan sohalaridan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Insonning go‘zallik tuyg‘usini taraqqiy ettirmay turib, ma’naviy barkamol inson haqida gapirib bo‘lmaydi. Inson o‘z atrofidagi go‘zallikni badiiy ijod orqali his qila olishi bilan insondir.

Bastakorlik va ijrochilik san’ati O‘rta Osiyo xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, taraqqiy etib kelgan ijod ummonidir. Uning o‘zbek xalqi madaniy merosidagi o‘rni beqiyosdir.

Bugungi davrimizga kelib, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanish jarayoni, ya’ni madaniy, shu jumladan, ko‘p asrlar davomida shakllangan badiiy merosimizni, an’analarimizni har tomonlama o‘rganishni taqozo etmoqda. Xalqimizning bebaho ma’naviy mulki bo‘lgan milliy kuy-qo‘shiqlarimiz muhim va qimmatli manbalardan biri bo‘lib, ularning keng miqyosda tadqiq etilishi masalasi hozirgi vaqtda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, bastakorlik va ijrochilik san’atining buyuk ijodkori, tarixni har tomonlama o‘rganish va bu borada chuqur izlanishlar qilib, xalqimizga yetkazish uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma Nariman Rajapov va Rustam Boltayevlarning ijod namunalari asosida tuzilgan.

Nariman Rajapov 1957-yil 13-mayda Xorazm viloyati Urganch tumanidagi Yuqori bog‘ qishlog‘ida tavallud topgan. Yoshligidan oila a’zolari bilan birga o‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlarini maroq bilan tinglab huzurlangan. Uning sevimli san’atkorlari: O‘zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov va Ortiq Otajonovlar hisoblanib, Nariman yoshligidan ular ijro qilgan qo‘shiqlarining shaydosi bo‘lgan.

1974–1978-yillarda Toshkent shahrida hozirgi Madaniyat va san’at

oliy dargohida ta'lim oldi. Talabalik yillarida o'qish bilan birga, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zosi bastakor S.Hayitboyev, Zumrad To'ychiyevalardan bastakorlik sir-asrorlarini o'rgangan.

O'qishni tugallagach, 1978-yildan o'zi ta'lim olgan 39-umumta'lim maktabida musiqa o'qituvchisi lavozimida faoliyat ko'rsata boshlagan.

Ko'p yillik mehnat faoliyati davomida mustaqil O'zbekiston Respublikamiz miqyosida o'tadigan kuy-qo'shiq bilan bog'liq ko'rik-tanlovlarda o'z shogirdlari bilan ishtirok etib, tuman va viloyat boshqichlarida sovrinli o'rinlarni egallashga erishgan. Bunday muvaffaqiyatlar ijodkor-ga ilhom bag'ishlash barobarida, Vatanimizni madh qiluvchi "Istiqlol nashidasi", "Ehtirom", "Navro'z sadosi", "Qushlar sayraganda" kabi asarlarning yaratilishiga sabab bo'lgan.

Nariman Rajapov o'qituvchilik faoliyati bilan bir qatorda, bir qancha ustoz san'atkorlar bilan ijodiy hamkorlik olib borgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, marhum Ro'zmat Bekchonov, O'zbekiston xalq hofizi Ro'zmat Jumaniyozov, mohir sozanda Sultonboy Sapayev, Islom Bobojanovlar unga o'z maslahatlarini berib, uning san'at sohasida kamol topishida o'z hissalarini qo'shganlar.


Ushbu qo'llanmadan nafaqat kuy, balki ijodkorning qo'shiqchilik janrida ijod qilgan asarlari ham o'rin olgan. Uning ijodida mumtoz shoir Mashrab, Oshiq Erkin, Jabbor Jumaniyazov va Jumanazar Yusupov kabi shoirlar she'rlaridagi diyorni madh etuvchi, odob-axloq, pokiza tuyg'ular, ishq-muhabbatni tarannum etuvchi matnlar tanlanib, ularga rang-barang musiqalar bastalab yaratgan qo'shiqlari ko'pchilikning e'tiborini jalb qilgan. Mashrab g'azaliga "Bo'laqoldim", J.Jumaniyozov so'zi bilan "O'zbekistonim", "Bo'lmasa", Oshiq Erkin she'rlari asosida "Jahonga sig'masman", "Bog'im bahorim kelaqol", "Bilib qo'y", "Alim alinga deyganda", "Erkam mening yuragim yoniq", "Ko'z tegmasin", "Kechar", "Bahor hazili", J.Yusupovning "Bayram tabrigi", "Mijanam", she'rlari asosida, shuningdek, muallifning o'zi qalam tebratib ijod qilgan "Iltimos erkam" kabi qo'shiqlar shular jumlasidandir.

Nariman Rajapovga qo'llanma materiallarini to'plash va tizimlashtirish, shuningdek, ularni qashqar rubobi hamda ovozga moslashtirishda UrDU filologiya va san'at fakulteti "Musiqa ta'limi" kafedrası katta o'qituvchisi Rustam Boltayev yaqindan yordam bergan.

ISTIQLOL NASHIDASI

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 130





OROM

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 86







QUSHLAR SAYRAGANDA

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 90










SOZ SEHRI

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 100







TOSHKENT GOZALI

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 140








XIROM AYLASA

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 140

The musical score is written in 6/8 time with a key signature of three sharps (F#, C#, G#). It consists of eight staves of music. The first staff includes a tempo marking 'M.M. ♩ = 140'. The music features various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and includes trills marked 'tr'. The score ends with a double bar line and repeat dots.



EHTIROM

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 100





M.M. ♩ = 200








M.M. ♩ = 100





SARVINOZ


N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 90



M.M. ♩ = 160





NAVRO‘Z SADOSI

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 150



mf









RUBOB TARONASI

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 72



M.M. ♩ = 180







BAHOR IFORI

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 160





O'ZBEKISTONIM

J. Jumaniyozov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 130









Jon-u jahonimsan ona vatanim,
Yozim bahorimsan ota vatanim.
Tirigim o'ligim ato vatanim,
Sevikli vatanim O'zbekistonim.

Boshim baland qay ellarni kezmayin,
Mehrim tovlanadi o'zim sezmayin.
Umrin bo'yi sening madhing kuylayin,
Sevikli vatanim O'zbekistonim.

Ot minib, to'n kiyib o'tgan ajdodi,
Aslo xor bo'lmaydi o'zbek avlodi.
Tomirlari teran ulug'dir zoti,
Sevikli vatanim O'zbekistonim.

Bir qism tuprog'ing ko'zga to'tiyo,
Jahonga taralgan shu yurtдан ziyo,
Istiqlol nuridan olam mahliyo
Sevikli vatanim O'zbekistonim

Жону жаҳонимсан она ватаним,
Ёзим баҳоримсан ота ватаним.
Тиригим ўлигим ато ватаним,
Севи́кли ватаним Ўзбекистоним.

Бошим баланд қай элларни кезмайин,
Меҳрим товланади ўзим сезмайин.
Умрим бўйи сенинг мадҳинг қуйлайин,
Севи́кли ватаним Ўзбекистоним.

От миниб, тўн кийиб ўтган аждоди,
Асло хор бўлмайди ўзбек авлоди.
Томирлари теран улугдир зоти,
Севи́кли ватаним Ўзбекистоним.


Бир қисм тупроғинг кўзга тўтиё,
Жаҳонга таралган шу юртдан зиё,
Истиқлол нуридан олам маҳлиё
Севи́кли ватаним Ўзбекистоним.

BAYRAM TABRIGI

J. Yusupov sheʼri


N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 140











Shu muborak ayyomda,
Shodlik sharobi jomda.
Shoir erki ilhomda,
Davralar gulgun-gulgun.

Qalblarda mehr-u e'zoz,
Qo'llarda o'ynoqi soz.
Yangrar tabassum, gulnoz.
Chehralar mamnun-mamnun.

Shodlik to'la ko'ngillar,
Aytishga ojiz tillar.
Yetib kelgan shu kunlar,
Muborak bo'lsin-bo'lsin.

Ustozlar dil oftobi,
Sizga shogird xitobi.
Umringizning kitobi,
Mazmunga to'lsin-to'lsin.

Шу муборак айёмда,
Шодлик шароби жомда.
Шоир эрки илҳомда,
Давралар гулгун-гулгун.

Қалбларда меҳр-у эъзоз,
Қўлларда ўйноқи соз.
Янграр табассум, гулноз.
Чехралар мамнун-мамнун.

Шодлик тўла кўнгиллар,
Айтишга ожиз тиллар.
Етиб келган шу кунлар,
Муборак бўлсин-бўлсин.



Устозлар дил офтоби,
Сизга шогирд хитоби.
Умрингизнинг китоби,
Мазмунга тўлсин-тўлсин.


BO'LMASA


J. Jumaniyazov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 140







4.

Na-cho-ra o's - tir-gan o'-g'il - qi - zin - giz, Qir - ki - ga kir -

sa - da in-son bo'l-ma-sa. Bu-ki - lib qol - gan-da ik - ki ti - zan - giz,

Bu-ki - lib qol - gan-da ik - ki ti - zan - giz, Siz - ni sil - ta -

shar-mi no - don bo'l-ma-sa. Siz-ni sil - ta - shar-mi no - don bo'l-ma-sa

tr

tr *tr* *tr~*

tr~ *tr~* *tr~*

5.

Jab-bor sen bil - gin-ki qa-ram - lik yo-mon, Ya-sha-moq ne

ho-jat, hur-lik bo'l-ma-sa. A-hil-lik ber, xu-do, tur-kiy el-lar-ga

A-hil-lik ber, xu-do, tur-kiy el-lar-ga Ta-lar-lar u - lar-ni bir-lik

bo'l-ma-sa. Xalq-qa ki ja-hon-da e' - ti - bor bo'l-mas,

Bir mus-ta-qil yurt - va-ta-ni bo'l - ma-sa.

Xalqqaki, jahonda e'tibor bo'lmas,
 Bir mustaqil yurt vatani bo'lmasa.
 To'y-ma'raka bersang, ko'ngillar to'lmas,
 Uying, joying to'r-adani bo'lmasa.

O'tkinchi dunyo bu o'tar ketarsan,
 Iz qolmaydi, izdoshlaring bo'lmasa.
 Yetmish hunarlarga qanday yetarsan,
 Chidam, toqat bardoshlaring bo'lmasa.

Ishing oldga yurmas atrof yoningda,
 Sadoqatli do'st-yoroning bo'lmasa.
 Hayot do'zax ayni yigit chog'ingda,
 Pokiza va halol yoring bo'lmasa.

Nachora o'stirgan o'g'il-qizingiz,
 Qirqiga kirsada inson bo'lmasa.
 Bukilib qolganda ikki tizingiz,
 Sizni siltasharmi nodon bo'lmasa.

Jabbor sen bilginki, qaramlik yomon,
 Yashamoq ne hojat hurlik bo'lmasa.
 Ahillik ber, xudo, turkiy ellarga
 Talarlar ularni birlik bo'lmasa.

Халккаки, жахонда эътибор бўлмас,
 Бир мустақил юрт ватани бўлмаса.
 Тўй-маърака берсанг, кўнгишлар тўлмас,
 Уйинг, жойинг тўр-адани бўлмаса.

Ўткинчи дунё бу ўтар кетарсан,
 Из қолмайди, издошларинг бўлмаса.
 Етмиш ҳунарларга қандай етарсан,
 Чидам, тоқат бардошларинг бўлмаса.

Ишинг олдга юрмас атроф ёнингда,
 Садокатли дўст-ёронинг бўлмаса,
 Ҳаёт дўзах айни йигит чоғингда,
 Покиза ва ҳалол ёринг бўлмаса.

Начора ўстирган ўғил-қизингиз,
 Қирқига кирса-да инсон бўлмаса.
 Букилиб қолганда икки тизингиз,
 Сизни силташарми нодон бўлмаса.



Жаббор сен билгинки, қарамлик ёмон,
 Яшамоқ не ҳожат, ҳурлик бўлмаса.
 Аҳиллик бер, ҳудо, туркий элларга
 Таларлар уларни бирлик бўлмаса.

KECHAR

E. Madrahimov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 100







Ko'z-la-ri yon - gay u-lar - ning gav-har-u dur kor - sa-lar,




U-nu-tib o'z - ni shu on jon i - la jo - non - dan ke - char









Nechalar bor past ketib, pokiza vijdondan kechar,
Charx urib nafs yo'lida, hatto, imondan kechar.

Нечалар бор паст кетиб, покиза виждондан кечар,
Чарх уриб нафси йўлида, хатто, имондан кечар.

Ko'zlari yongay ularning gavhar-u dur ko'rsalar,
Unutib o'zni shu on jon ila jonondan kechar.

Кўзлари ёнгай уларнинг гавҳар-у дур кўрсалар,
Унутиб ўзни шу он жон ила жонондан кечар.

Behayolarni ko'ringkim, gul bosib orsiz ko'zin,
O'g'rini afzal bilib, bir yaxshi insondan kechar.

Беҳаёларни кўрингким, гул босиб орсиз кўзин,
Ўғрини афзал билиб, бир яхши инсондан кечар.

Oqibat faryod erur elga vafosizlar ishi,
Aytingizkim, qaysi bulbul turfa bo'stondan kechar.

Окибат фарёд эрур элга вафосизлар иши,
Айтингизким, қайси булбул турфа бўстондан кечар.

Ko'rgani achchiq sitam jon-u jahondin o'tsa gar,
Bunga bir ko'pdir misol - hattoki, el xondan kechar.

Кўргани аччиқ ситам жон-у жахондин ўтса гар,
Бунга бир кўпдир мисол - хаттоки, эл хондан кечар.

Tiyradur, bil, Oshiq Erkin, undayin inson kuni,
Kim agar insofni yeb, feruza osmondin kechar.


Тийрадур, бил, Ошиқ Эркин, ундайин инсон куни,
Ким агар инсофни еб, феруза осмондин кечар.


KO'Z TEGMASIN


E. Madrahimov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 140









Lab - la - ri shah-du sha-kar, til-la - ri bol. ko'z teg - ma - sin.



Lab-la-ri shahd - u sha-kar, til-la - ri bol, ko'z teg - ma - sin.



Mun-cha ham dur-do - na-san, so-hib ja-mol



koz teg - ma - sin Sar - vi qad, sar-vi - ra-von, ham bar - ka - mol,



koz teg - ma - sin

Muncha ham durdonasan, sohibjamol, ko'z tegmasin,
Sarviqad, sarviravon, ham barkamol, ko'z tegmasin.

Мунча ҳам дурдонасан, соҳибжамол, кўз тегмасин,
Сарвиқад, сарвиравон, ҳам баркамол, кўз тегмасин.

Ohu ko'z, olma yonoq, bodomqovoq, qirmiz dudoq,
Dur saqoq, kiprigi o'q, qoshi hilol, ko'z tegmasin.

Оху кўз, олма ёнок, бодомқовок, қирмиз дудок,
Дур сақок, киприги ўқ, қоши ҳилол, кўз тегмасин.

Ko'kda yulduz, suvda qunduz, bir malaksiyimosan, ey
La'li yoqut, xipcha bel, ruxsori ol, ko'z tegmasin.

Кўкда юлдуз, сувда қундуз, бир малаксиймосан, эй
Лаъли ёқут, хипча бел, рухсори ол, кўз тегмасин.

Senga teng kelmas chiroyda dilrabolar nechasi,
Jismi hur, siymi, tani nurday halol, ko'z tegmasin.

Сенга тенг келмас чиройда дилраболар нечаси,
Жисми хур, сийми, тани нурдай ҳалол, кўз тегмасин.

Oshiq Erkinning hayotin bol kabi lazratli qil,
Lablari shahd-u shakar, tillari bol, ko'z tegmasin.

Ошиқ Эркиннинг ҳаётин бол каби лаззатли қил,
Лаблари шаҳд-у шакар, тиллари бол, кўз тегмасин.

JAHONGA SIG'MASMAN

E. Madrahimov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 150



Ja - hon - ga sig' - mas - man dar - yo day to - shib





yu - ra - gim - ning jo'sh - gan vaq - ti shu kun - lar



Ba - land tog - lar - dan ham o' - tar - man o - shib







ro - zi er-sang o't - ka - zar - man to' ying - ni,



yu - ra - gim-ning jo'sh-qan vaq - ti shu kun - lar.



Sen - day so - hib ja - mol bo' - lar e - kan - da,



jo - nim, o - han - ra - bo se - hr bor sen - da, da,



yu - rak - dan sev - moq - ni qil - mas - man kan - da,



yu - ra - gim - ning jo'sh - gan vaq - ti shu kun - lar





Jahonga sig' masman daryoday toshib,
Yuragimning jo'shgan vaqti shu kunlar.
Baland tog'lardan ham o'tarman oshib,
Yuragimning jo'shgan vaqti shu kunlar.

Nigoramga atir gullar teraman,
Yulduzlarni bir-bir olib berarman,
Baxtim sari quchoq ochib yurarman,
Yuragimning jo'shgan vaqti shu kunlar.

Quvonarman har ko'rganda bo'yingni,
Nurli orzu yorug' qilsin o'yingni,
Rozi esang o'tkazayin to'yingni,
Yuragimning jo'shgan vaqti shu kunlar.

Senday sohibjamol bo'lar ekan-da,
Jonim, ohanrabo sehr bor senda,
Yurakdan sevmog'ni qilmasman kanda,
Yuragimning jo'shgan vaqti shu kunlar.

Sevgi bog'larining safosi o'zga,
Sahro chaman bo'lib ko'rinar ko'zga,
Oshiq Erkin mehri tushdi sen qizga,
Yuragimning jo'shgan vaqti shu kunlar.

Жаҳонга сиғмасман дарёдай тошиб,
Юрагимнинг жўшган вақти шу кунлар.
Баланд тоғлардан ҳам ўтарман ошиб,
Юрагимнинг жўшган вақти шу кунлар.

Нигорамга атир гуллар тераман,
Юлдузларни бир-бир олиб берарман,
Бахтим сари кучоқ очиб юрарман,
Юрагимнинг жўшган вақти шу кунлар.

Кувонарман ҳар кўрганда бўйингни,
Нурли орзу ёруғ қилсин ўйингни,
Рози эсанг ўтказайин тўйингни,
Юрагимнинг жўшган вақти шу кунлар.

Сендай соҳибжамол бўлар экан-да,
Жоним, оҳанрабо сеҳр бор сенда,
Юракдан севмоқни қилмасман канда,
Юрагимнинг жўшган вақти шу кунлар.

Севги боғларининг сафоси ўзга,
Саҳро чаман бўлиб кўринар кўзга,
Ошиқ Эркин меҳри тушди сен қизга,
Юрагимнинг жўшган вақти шу кунлар.

BO'LAQOLDIM

Mashrab g'azali

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 160



No - goh ko'-ri-bon mah - fi ja-mo - ling bo' la-qol - dim,



No Oy - dek yu-zin-ga doq-dim-u xu - mor bo' la-qol - dim, Oy -



dek yu - zin - ga doq - dim - u xu - mor bo' - la - qol - dim,





Ko'r-dim ki a-jab ish-va-lar-u dil-ba-ri tan - noz,

Par -



vo - na bo'-lib ish - qi - da o't - dek yo - na qol - dim.

Dil -



dor ja - mo - ling - ni ko'-rib ish - qing yo' - li - da.

Dil -





dor ja - mo - ling - ni ko'-rib ish - qing yo' - li - da.

Par -



vo - na bo'-lib o't - ga o' - zim - ni u - ra qol - dim,

Par -



Nogoh ko'ribon mahfa jamoling bo'laqoldim,
Oydek yuzinga boqdim-u xumor bo'laqoldim.

O'tdek tutashib kuydi yuragim birla jonim,
Parvona bo'lib ishqida o'tdek yona qoldim.

Ko'rdim ki ajab ishvaqar-u dilbar-u tannoz,
Parvona bo'lib ishqida o'tdek yona qoldim.

Dildor jamolingni ko'rib ishqing yo'lida,
Parvona bo'lib o'tga o'zimni ura qoldim.

Mashrab boshiga tushdi o'shal kulg'ami dildor,
Oydek yuzinga boqdim-u xumor bo'la qoldim.

Ногоҳ кўрибон маҳфа жамолинг бўлақолдим,
Ойдек юзинга бокдим-у хумор бўлақолдим.

Ўтдек туташиб куйди юрагим бирла жоним,
Парвона бўлиб ишқида ўтдек ёна қолдим.

Кўрдим ки ажаб ишвагар-у дилбар-у танноз,
Парвона бўлиб ишқида ўтдек ёна қолдим.

Дилдор жамолингни кўриб ишқинг йўлида,
Парвона бўлиб ўтга ўзимни ура қолдим.



Машраб бошига тушди ўшал кулғами дилдор,
Ойдек юзинга бокдим-у хумор бўла қолдим.



ERKAM, MENING YURAGIM YONIQ




E. Madrahimov she'ri




N. Rajapov musiqasi


M.M. ♩ = 140











Bulbul bo'lib qo'limda sozim,
 Sunbullarga so'yladim rozimi,
 Endi elga aytmog'im lozim:
 Erkam, seni sevaman aniq,
 Axir mening yuragim yoniq.

Sevganimni gullar bildilar,
 Yal-yal yashnab, xirrom qildilar,
 Targ'unchalar xandon kuldilar,
 Erkam, mening yuragim yoniq.
 Axir seni sevaman aniq.

Miltillashib ko'kda yulduzlar,
 Zuhrolarga sevgimdan so'zlar,
 Ko'zim yolg'iz visoling ko'zlar,
 Erkam, seni sevaman aniq,
 Axir, mening yuragim yoniq.

Yetib sening kabi jononga,
 Mehringni joyladim men jonga,
 Oshiq Erkin sig'mas jahonga,
 Axir seni sevaman aniq,
 Erkam, mening yuragim yoniq.

Булбул бўлиб қўлимда созим,
 Сунбулларга сўйладим розими,
 Энди элга айтмоғим лозим:
 Эркама, сени севаман аниқ,
 Ахир менинг юрагим ёниқ.

Севганимни гуллар билдилар,
 Ял-ял яшнаб, хиром қилдилар,
 Таргунчалар хандон кулдилар,
 Эркама, менинг юрагим ёниқ.
 Ахир сени севаман аниқ.

Милтиллашиб кўкда юлдузлар,
 Зухроларга севгимдан сўзлар,
 Кўзим ёлғиз висолинг кўзлар,
 Эркама, сени севаман аниқ,
 Ахир, менинг юрагим ёниқ.

Етиб сенинг каби жононга,
 Мехрингни жойладим мен жонга,
 Ошиқ Эркин сифмас жаҳонга,
 Ахир сени севаман аниқ,
 Эркама, менинг юрагим ёниқ.

ILTIMOS, ERKAM


N. Rajapov sheʼri

N. Rajapov musiqasi


M.M. ♩ = 150













Ishq bog'ida tenggi yo'q go'zalim Barno,
Qarashlaring sirlidir unda ming ma'no,
Tun-u kunlar o'ylayman visoling tanho,
Rad javobin bermagin, iltimos, erkam.

Sening ishqingda men kuyib yonarman,
Xayolimda doim vasling o'ylarman.
Nomingni e'zozlab she'rlar yozarman,
Rad javobin bermagin, iltimos, erkam.

Hamon sening qarshingda egilgan boshim,
O'n sakkizdan oshdi jo'shqin bu yoshim,
Bo'lg'in deyman o'zing taqdir quyoshim,
Rad javobin bermagin, iltimos, erkam.

Ijod bo'stoniga boshlading o'zing,
Quvontirar aytgan har shirin so'zing,
Meni maftun etgan ul shahlo ko'zing,
Rad javobin bermagin, iltimos, erkam.

Ijod sari yo'l oldim, ko'rgin sen mana,
Shul sababdan olganman qalam qo'limga.
O'tinchlar qilmoqdadir Narimon yana,
Rad javobin bermagin, iltimos, erkam.

Ишк боғида тенгги йўк гўзалим Барно,
Қарашларинг сирлидир унда минг маъно,
Тунукунлар ўйлайман висолинг танҳо,
Рад жавобин бермагин, илтимос, эркам.

Сенинг ишқингда мен куйиб ёнарман,
Хаёлимда доим васлинг ўйларман.
Номингни эъзозлаб шеърлар ёзарман,
Рад жавобин бермагин, илтимос, эркам.

Ҳамон сенинг қаршингда эгилган бошим,
Ўн саккиздан ошди жўшқин бу ёшим,
Бўлгин дейман ўзинг тақдир қуёшим,
Рад жавобин бермагин, илтимос, эркам.

Ижод бўстониға бошладинг ўзинг,
Қувонтирар айтган ҳар ширин сўзинг,
Мени мафтун этган ул шахло кўзинг,
Рад жавобин бермагин, илтимос, эркам.


Ижод сари йўл олдим, кўргин сен мана,
Шул сабабдан олганман қалам қўлимга.
Ўтинчлар қилмоқдадир Наримон яна,
Рад жавобин бермагин, илтимос, эркам.

BILIB QO'Y

E. Madrahimov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 130





Meh-rim be - rib se - vib qol-dim sen qiz - ni,











Sen-dan o'z - ga sev - gi - lim yoq bi - lib qo'y.








Ko'z-lar - ga sur - tar-man sen bos - gan iz - ni,











Mehrim berib, sevib qoldim sen qizni,
Sendan o'zga sevgilim yo'q, bilib qo'y.
Ko'zlarga surtarman sen bosgan izni,
Sendan o'zga sumbulim yo'q, bilib qo'y,
G'uncha yonoq sevgilim yo'q, bilib qo'y.

Jono jamolingni zoriman, jonim,
Yayrayman husningga ko'z tushgan onim,
Vafoli sevgimga garov imonim,
Sendan o'zga sumbulim yo'q, bilib qo'y,
G'uncha yonoq sevgilim yo'q, bilib qo'y.

Uzoq yulduzdan ham yaqinsan ko'zga,
Yolg'on gap qo'shmadim, ishongil, so'zga,
Muhabbat bog'ida, ay, sendan o'zga
Tarovatli bir gulim yo'q, bilib qo'y,
G'uncha yonoq sevgilim yo'q, bilib qo'y.

Oshiq Erkin yuragiga ishon-a,
Yoniq mehri sadoqatdan nishona,
Sevgimizdan yarqiragay peshona,
G'uncha yonoq sevgilim yo'q, bilib qo'y,
Sendan o'zga sumbulim yo'q, bilib qo'y.

Меҳрим бериб, севиб қолдим сен қизни,
Сендан ўзга сеvgилим йўқ, билиб қўй.
Кўзларга суртарман сен босган изни,
Сендан ўзга сумбулим йўқ, билиб қўй,
Ғунча ёнок сеvgилим йўқ, билиб қўй.

Жоно жамолингни зориман, жоним,
Яйрайман ҳуснингга кўз тушган оним,
Вафоли сеvgимга гаров имоним,
Сендан ўзга сумбулим йўқ, билиб қўй,
Ғунча ёнок сеvgилим йўқ, билиб қўй.

Узок юлдуздан ҳам яқинсан кўзга,
Ёлғон гап қўшмадим, ишонгил, сўзга,
Муҳаббат боғида, ай, сендан ўзга
Тароватли бир гулим йўқ, билиб қўй,
Ғунча ёнок сеvgилим йўқ, билиб қўй.



Ошиқ Эркин юрагига ишон-а,
Ёниқ меҳри садоқатдан нишона,
Севгимиздан ярқирагай пешона,
Ғунча ёнок сеvgилим йўқ, билиб қўй,
Сендан ўзга сумбулим йўқ, билиб қўй.



BOG'IM – BAHORIM, KELA QOL





E. Madrahimov she'ri




N. Rajapov musiqasi



M.M. ♩ = 140











Bog'im – bahorim, kela qol,
So'lim nahorim, kela qol,
Hayotimning gultoji, hey
Ardoqli yorim, kela qol.
Qurboniman yurishlaring,
Gavhar sochib kulishlaring.

Боғим – баҳорим, кела қол,
Сўлим наҳорим, кела қол,
Ҳаётимнинг гултожи, ҳей
Ардоқли ёрим, кела қол.
Қурбониман юришларинг,
Гавҳар сочиб кулишларинг.

Bir-bir bosib kelsang netar,
Mushtoqligim bilsang netar,
Jumla-jahonni yashnatib
Kulsang netar, kulsang netar.
Qurboniman kulishlaring,
Tovus kabi yurishlaring.

Бир-бир босиб келсанг нетар,
Муштоклигим билсанг нетар,
Жумла-жаҳонни яшнатиб
Кулсанг нетар, кулсанг нетар.
Қурбониман кулишларинг,
Товус каби юришларинг.

Mastona kel, xumor boqay,
Qalbingga ishq o'tin yoqay.
Mehri daryo Tohir bo'lib,
Mehring daryosinda oqay.
Qurboniman yurishlaring,
Gavhar sochib kulishlaring.

Мастона кел, хумор боқай,
Қалбингга ишқ ўтин ёқай.
Меҳри дарё Тохир бўлиб,
Меҳринг дарёсинда оқай.
Қурбониман юришларинг,
Гавҳар сочиб кулишларинг.

Sunbulga o'xshaysan yursang,
Bulbulga o'xshaysan kulsang.
Oshiq Erkin uchun, erkam,
Bayram bo'lib ketar kelsang.
Qurboniman yurishlaring,
Gavhar sochib kulishlaring.

Сумбулга ўхшайсан юрсанг,
Булбулга ўхшайсан кулсанг.
Ошиқ Эркин учун, эркам,
Байрам бўлиб кетар келсанг.
Қурбониман юришларинг,
Гавҳар сочиб кулишларинг.

BAHOR HAZILI

E. Madrahimov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 140







4.

Qiz - lar, yash-nab kel - sa har yil mart o - yi,

Siz - lar - ni se - va - man sev - ga - nim so - yi.

Nav-ro'z jo - non - lar - ga hu - sn u - la - shar,

Ko'z - la - rim - ni yo - qar qiz - lar chi - ro - yi.

ko'z - la - rim - ni yo - qar qiz - lar chi - ro - yi.

chi - ro - yi.

Qizlar, yashnab kelsa har yil mart oyi,
Sizlarni sevaman sevganim soyi.

Navro'z jononlarga husn ulashar,
Qo'zlarimni yoqar qizlar chiroyi.

Sochimga qaramang, og'am, akam deng,
Yomon arazlayman kim desa: "Doyi".

Yasharib yuribman madhingiz kuylab,
Sizlar qaritmaysiz meni, xudoyi.

Quvnoq davrangizga uchib borurman,
Tayin qilinsa, bas, uchrashuv joyi.

Shunday xush ayyomda bir bor bo'lsa, bas,
Oshiq Erkinga ham bir bo'sa poyi.

Qizlar, yashnab kelsa har yil mart oyi,
Sizlarni sevaman sevganim soyi.

Қизлар, яшнаб келса ҳар йил март ойн,
Сизларни севаман сеvgаним сойн.

Наврўз жононларга ҳусн улашар,
Қўзларимни ёқар қизлар чиройи.

Сочимга қараманг, оғам, акам денг,
Ёмон аразлайман ким деса: "Дойи".

Яшариб юрибман мадҳингиз куйлаб,
Сизлар қаритмайсиз мени, худойи.

Қувноқ даврангизга учиб борурман,
Тайин қилинса, бас, учрашув жойи.

Шундай хуш айёмда бир бор бўлса, бас,
Ошиқ Эркингга ҳам бир бўса пойи.

Қизлар, яшнаб келса ҳар йил март ойн,
Сизларни севаман сеvgаним сойн.


ALIM ALINGA DEYGANDA

E. Madrahimov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 140







Et-ma yo-rim bir xol ma-ni, Qay-mo-g'im bo' - libqol ma-ni.



O' zing gul-lat o-g'u-sim - ni, Tur-gan-bit-ga - nim bol ma-ni.




To'g' ri ke-lib oy va yil-lar, Bir-bi-ri ni top-di dil-lar. To'g' ri ke-lib



oy va yil-lar, Bir-bi-ri ni top-di dil-lar. Bu-gun sen-ga



O-shiq Er-kin, Jor bo'-libsay - rar bul-bul-lar. O't bo' lib yon



Oy nigorim, kel yonima,
O'zing jon bo'lg'in jonima.
Jon bo'lmasang sen jonima,
Qolishing ayon qonima.
O't bo'lib yondi jahonim,
Alim alinga deyganda.
Na bo'lar, ayt, erka xonim,
Men seni yonib suyganda.

Qaysi bir chaman gulisan,
Kimni sochi sumbulisan.
Mening iqbolimni kuyla,
Bo'lib bog'im bulbuli san.
O't bo'lib yondi jahonim,
Alim alinga deyganda.
Na bo'lar, ayt, erka xonim,
Men seni yonib suyganda.

Etma yorim bir xol meni,
Qaymog'im bo'lib qol mani.
O'zing gullat og'ushimni,
Turgan-bitganim bol mani.
O't bo'lib yondi jahonim,
Alim alinga deyganda.
Na bo'lar, ayt, erka xonim,
Men seni yonib suyganda.

To'g'ri kelib oy va yillar,
Bir-birini topdi dillar.
Bugun senga Oshiq Erkin,
Jo'r bo'lib sayrar bulbullar.
O't bo'lib yondi jahonim,
Alim alinga deyganda.
Na bo'lar, ayt, erka xonim,
Men seni yonib suyganda.

Ой нигорим, кел ёнима,
Ўзинг жон бўлгин жонима.
Жон бўлмасанг сен жонима,
Қолишинг аён қонима.
Ўт бўлиб ёнди жаҳоним,
Алим алинга дейганда.
На бўлар, айт, эрка хоним,
Мен сени ёниб суйганда.

Қайси бир чаман гулисан,
Кимни сочи сумбулисан.
Менинг иқболимни куйла,
Бўлиб боғим булбули сан.
Ўт бўлиб ёнди жаҳоним,
Алим алинга дейганда.
На бўлар, айт, эрка хоним,
Мен сени ёниб суйганда.

Этма ёрим бир хол мени,
Қаймоғим бўлиб қол мани.
Ўзинг гуллат оғушимни,
Турган-битганим бол мани.
Ўт бўлиб ёнди жаҳоним,
Алим алинга дейганда.
На бўлар, айт, эрка хоним,
Мен сени ёниб суйганда.

Тўғри келиб ой ва йиллар,
Бир-бирини топди диллар.
Бугун сенга Ошиқ Эркин,
Жўр бўлиб сайрар булбуллар.
Ўт бўлиб ёнди жаҳоним,
Алим алинга дейганда.
На бўлар, айт, эрка хоним,
Мен сени ёниб суйганда.

MIJANAM

J. Yusupov she'ri

N. Rajapov musiqasi

M.M. ♩ = 160



2.

Yu - zing - ni jil - va - si oy - ga tu - shib - di,

Kip - ri - ging o'q qo - shing yoy - ga tu - shib - di.

Bog' - lar - da o'y - la - nib suv - lar - ga boq - ma,

Bog' - lar - da o'y - la - nib suv - lar - ga boq - ma,

San boq-sang o'ch - mas o't soy - ga tu - shib - di.


Naqorat


San o' - zing yol - g'i - zim yul - di - zim sa - nam,

Ti - lin - da qay - mo - g'i, bo - li mi - ja - nam.

1.

2.







Ti - lin - da qay - mo - g'i, bo - li mi - ja - nam.



Ti - lin - da qay - mo - g'i, bo - li mi - ja - nam.

Ko'ksida qo'sh nori ko'zim o'ynatdi,
Sochingni har tori ko'zim o'ynatdi.
So'zlasa so'zlari olib jonimni,
G'uncha labda boli ko'zim o'ynatdi.

Naqorat:

San o'zing yolg'izim yulduzim sanam,
Tilinda qaymog'i, boli mijanam.

Yuzingni jilvasi oyga tushibdi,
Kipriging o'q qoshing yoyga tushibdi.
Bog'larda o'ylanib suvlarga boqma,
Sen boqsang o'chmas o't soyga tushibdi.

Naqorat:

San o'zing yolg'izim yulduzim sanam,
Tilinda qaymog'i, boli mijanam.

Bog' kezsang bog'imda sollaniblar yur,
Tovusdek ming turli tovlaniblar yur.
Tanda jonim o'zing ketma uzoqqa,
Bir umr yonimda nozlaniblar yur.

Naqorat:

San o'zing yolg'izim yulduzim sanam,
Tilinda qaymog'i, boli mijanam.

Ishq dardi lazzatli og'yorlar yomon,
Og'yorlardan yetgan ozorlar yomon.
Noz aylab o'zingni solma bozorga,
Muhabbat sotilsa bozorlar yomon.

Naqorat:

San o'zing yolg'izim yulduzim sanam,
Tilinda qaymog'i, boli mijanam.

Kўксида қўш нори кўзим ўйнатди,
Сочингни ҳар тори кўзим ўйнатди.
Сўзласа сўзлари олиб жонимни,
Ғунча лабда боли кўзим ўйнатди.

Накорат:

Сан ўзинг ёлғизим юлдузим санам,
Тилинда қаймоғи, боли мижанам.

Юзингни жилваси ойга тушибди,
Кипригинг ўқ қошинг ёйга тушибди.
Боғларда ўйланиб сувларга боқма,
Сен боқсанг ўчмас ўт сойга тушибди.

Накорат:

Сан ўзинг ёлғизим юлдузим санам,
Тилинда қаймоғи, боли мижанам.

Боғ кезсанг боғимда солланиблар юр,
Товусдек минг турли товланиблар юр.
Танда жоним ўзинг кетма узоққа,
Бир умр ёнимда нозланиблар юр.

Накорат:

Сан ўзинг ёлғизим юлдузим санам,
Тилинда қаймоғи, боли мижанам.

Ишқ дарди лаззатли оғёрлар ёмон,
Оғёрлардан етган озорлар ёмон.
Ноз айлаб ўзингни солма бозорга,
Муҳаббат сотилса бозорлар ёмон.

Накорат:

Сан ўзинг ёлғизим юлдузим санам,
Тилинда қаймоғи, боли мижанам.

ILOVA



N.Rajapov



N.Rajapov sozanda S.Sapayev bilan



N.Rajapov bastakor S.Nurmetov bilan



N.Rajabov shogirdlari bilan



N.Rajapov shogirdi U.Sa'dullayev bilan Xorazm televideniya-sida



N.Rajapov oilasi davrasida



N.Rajapov shogirdlari bilan



N.Rajapov shogirdlari bilan mashg'ulot jarayonida



UrDU katta o'qituvchisi R.Boltayev va N.Rajapov ijodiy jarayonda



UrDU katta o'qituvchisi R.Boltayev va N.Rajapov notalashtirish jarayonida



N.Rajapov "Musiqa ta'limi" kafedrasi talabalari bilan



UrDU filologiya va san'at fakulteti "Musiqa kafedrasi"da muallif ijrosi



UrDU filologiya va san'at fakulteti "Musika kafedrası" mudiri M.Nurmatova mualliflar bilan uslubiy qo'llanma muhokamasi paytida



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Devon. Nashrga tayyorlovchilar: H.Sulaymonov, F.Sulaymonova. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 1960.
2. Alisher Navoiy she'riyatidan. Tuzuvchi Sh.Shomuhamedov. T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1977, 110 b.
3. Amiriy. Devon. Nashrga tayyorlovchi M.Qodirova. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 1972.
4. Anash xalfa. S.Ro'zimboyev nashrga tayyorlagan. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2006.
5. Asrlar nidosi. To'plovchilar: V.Zohidov, A.Qayumov. T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1982, 544 b.
6. Boborahim Mashrab. Devon. Nashrga tayyorlovchi V.Rahmonov, K.Isroilov. T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980, 349 b.
7. Zarifiy. Dillarda g'azal Xivam. Urganch: "Xorazm" tahririyat nashr bo'limi, 1993.
8. Matnazar Abdulhakim. Oydinlik. T.: "Yozuvchi nashriyoti", 1997.
9. Mullanafas. She'rlar. Nashrga tayyorlovchilar: N.Ashirov, B.Garriyev, A.Kekilov. Ashxobod: "Turkmaniston" davlat nashriyoti, 1962, 142 b.
10. Oshiq Erkin (Erkin Madrahimov). Bir hikmat bor muhabbatda. Urganch: "Xorazm" tahririyat nashr bo'limi, 1994.

MUNDARIJA

Kirish.....	4-5
Istiqlol nashidasi.....	6-8
Orom.....	9-11
Qushlar sayraganda.....	12-14
Soz sehri.....	15-16
Toshkent goʻzali.....	17-19
Xirom aylasa	20-21
Ehtirom	22-26
Sarvinoz.....	27-28
Navroʻz sadosi.....	29-32
Rubob taronasi.....	33-35
Bahor ifori.....	36-37
Oʻzbekistonim (J.Jumaniyazov).....	38-41
Bayram tabrigi (J.Yusupov).....	42-46
Boʻlmasa (J.Jumaniyazov)	47-51
Kechar (E.Madrahimov (Oshiq Erkin).....	52-56
Koʻz tegmasin E.Madrahimov (Oshiq Erkin).....	57-60
Jahonga sigʻmasman (Oshiq Erkin).....	61-65
Boʻla qoldim (Mashrab gʻazali).....	66-69
Erkam mening yuragim yoniq (Oshiq Erkin).....	70-74
Iltimos erkam (R.Rajapov).....	75-80
Bilib qoʻy (Oshiq Erkin).....	81-86
Bogʻim bahorim kelaqol (Oshiq Erkin).....	87-91
Bahor hazili (Oshiq Erkin).....	92-95
Alim alinga deyganda (Oshiq Erkin).....	96-99
Mijanam (J.Yusupov).....	100-104
Ilova.....	105-111

Nariman Rajapov, Rustam Boltayev

“ISTIQLOL NASHIDASI”

(uslubiy qo'llanma)

Muharrir: **Yo'ldoshev Ro'zimboy**

Texnik muharrir: **Sherali Yo'ldoshev**

Musahhih: **Tamara Turumova**

UrDU noshirlik bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 2009-yil 19-avgustdagi №148 raqamli buyrug'i bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

Terishga berildi: 24.06.2015.

Bosishga ruxsat etildi: 27.06.2015.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Tayms garniturası. Adadi 200. Buyurtma №.36.

Hisob-nashriyot tabag'i 5.

Shartli bosma tabag'i 4,7.

UrDU noshirlik bo'limida tayyorlandi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.

Telefon: (0-362)-224-66-01.

UrDU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.

Telefon: (0-362)-224-66-01.

УрДУ “Музыка таълими” кафедраси катта ўқитувчиси Рустам Болтаевнинг баётакор Н. Рижанов ижод намуналари асосида тўнлаган ва қанқар рубоби ҳамда овозга мослаган “Истиқлол пинҳонаси” номли ўқув- услубий қўлланмасига

ТАҚРИЗ

Инсоният ҳаётининг мазмуни унинг ижодиёт маҳсули билан ўлчанади. Қайси халқнинг ўтмиши узок, маънавияти бой, мероси чексиз бўлса, албатта, бу халқнинг истиқболли бўлиб, келажак авлоди эса барқамолдир.

Маълумки музика санъати халқ маънавияти ва анъаналарининг кўнгусидир. Инсоннинг гўзаллик туйғусини тараққий эттирмай туриб, маънавий барқамол инсон ҳақида гапириб бўлмайди. Нарймон Рижанов ўз ашрофидоғи гўзаллиқни бадиий ижод орқали ҳис қила олиншини ушбу қўлланмада тўнлаган қуй ва қўшиқлар орқали намойи қилган. Вақанимостини мадҳ қилувчи “Истиқлол пинҳонаси”, “Эхтиром”, “Наврўз садоси”, “Қушлар сайрагани” каби қуйлари бунга мисол бўла олади.

Бу борада халқимизнинг бебаҳо маънавий мулки бўлган, халқимиз томонидан яратилиб, авлоддан-авлодга ўтиб ўзининг маъқевини сақлаб келаётган халқ ижодиёти намуналари ҳар доим ҳам ёшлар тарбиясида ватанпарварлик, меҳнатсеварлик, касб-содикат, инсонларга меҳр - мухаббат туйғуларини шакллантирувчи ва ривожлантирувчи восита сифатида хизмат қилиб келган. Бу меъзон доимо ўзининг руҳий ва маънавий таъсирини ўтказиши беғумондир.

Мазкур қўлланма, музика санъатининг ана шундай юзлик жиҳатларини ўзида мужассам этган халқ ижодиётини маданият ва санъат қозғалдири, бозлар музика ва санъат жасадлари Анъанавий ижроридек бўлган, қанқар рубоби ва вицандавий ҳовандонидек ўқувчиларни ҳамда олий ўқув юрти “Музыка таълими” йўналиши “Нолсу искро ва энсэмбли” фақиларода тарбия олаётган ёш санъат охдасиниқларини, жуналанилар, устозлик жасбониниқ тиллари

учун мўлжалланганлиги, унинг таркибидан жой олган мусликий намуналаридан аниқлаш мумкин. Н. Ражаповнинг мусликий намуналари тўланган “Истиклол нашиндаси” кўлланмиси кўшимча адабиёт сифатида наир қилиниши мақсадга мувофиқдир.

Наримон Ражапов кўш йиллик ўқитувчилик, ижодкорлик фаолияти давомида ўқувчи талабаларининг эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда на ўқув дастурида белгиланган ҳалқ ижодиётига мансуб мусликий намуналарга ҳос ижоди тўпланиб наирга тайёрланиши айни муддаодир. Ундаги маълумотлар ёш санъат ихлосмандларини, муаллимлар асарларинини ижро этишда тўғри муносабатни тотишлари учун кўмак бўлиши, асарлар намуналари эса муаллиф томонидан меъриий талаблар доирасида зикр этилганлигини эътироф этиш лозимдир.

Ёшлар қалбида миллий меъросга бўлган муҳаббатни ошириш, миллий анъаналар асосида тарбиялаш, мустиқиллик даврининг энг долзарб масалаларидан биридир.

Ургичи санъат колли
халқ чолгу асбоби



Гиллаев Д.Э

УрДУ “Музыка тилими” кафедраси катта ўқитувчиси Руслан Болтаевнинг бастикор Н. Ражапов ижод намуналари асосида тўнланган ва кўшиқар рубоби ҳамда овозга мослаган “Истиқлол нашиндиси” номли ўқув- услубий қўлланмасига

ТАҚРИЗ

Бастикорлик ва навроҳлик санъати Ўрта Осиё халқларида жуда едлам тавонлардан маъмул бўлиб, тараккий этиб келган ижод эҳмолидир. Ижод – ҳаётини тўқатиштирувчи, ақл ва сир-асроҳларини очувчи, инсоният тофакураини андиқувчи неъматдир. Инсоният ҳаёти мизмуни унинг наҳодиёт маъсули билан ўзичанади. Унинг Ўзбек халқи маданий меъросидаги ўрни бетида.

Мустандиланг дўридан бошлаб халқимизнинг музикаий-маданий меъросига жуда катта этибор каратишмоқта. Президентимизнинг “Болалар музика ва санъат маъстаблари моделлий-техник баъснинг мустандиланг ва улар ёзичилигини янада яхшилани бўйича 2008-2014 йилларгача муважжидланг дашат дастури тўғрисида”ги Қарори бўли ани бир небаътидир.

Наримон Ражаповнинг баъаний ижоди ёридан таниланг дашларини ях бора аниланг кўшиқар рубоби ҳамда хонандалар учун мослаштирилг нотига тўнларилгани билан ажралиб туради.

Ушбу услубий қўлланмада, тўнланг куй ва қўшиқлар, ижодкорнинг қўшиқчилик ишридан наъот қилган дашларини ҳам ўрни олган. Ушбу қўшиқлардан Манрай, таникли шўр Ошнқ Эркин, Жаббар Жуманиязов ва Жуманазар Юсуфшар шеърларини дашрини мадх этувчи, одоб-ахлоқ, поэтика қўйгулар, ёрини тарангум, ётувчи мизилар танилиб, ранг-баранг мустандилар баъслайб яратган «қўшиқларини» музика санъатига ани бир небаътидир ёриданг кўйилг килани музика «Анилик», Манрай танилиг “Бўли жоланг”, Ж. Жаббаров ёрини баъан “Ўзбекистанг”, “Бўлимаг”, Ошнқ Эркин яхларини яхилиг “Жаҳонга келмасман”, “Богим баҳоранг келанг”, “Билиб қўй”.

“Аним алаини дейганида”, “Эркам меннинг юрагим ёник”, “Кўз тегмасин”, “Кечар”, “Баҳор хаёли”, Ж. Юсупов шеъри “Байрам табриги”, “Миязам” каби асарларидир.

Муаллифининг ушб калам тебратиб ижод қилган “Итгимос Эркам” куйиқлари, “Истиқлол нашиндаси”, “Эхтиром”, “Наврўз салоси”, “Қушлар шайраганида” каби куйларини ҳам қўлламога киритган.

Н. Ражаюновнинг музикаий намуналари тўлланган “Истиқлол нашиндаси” қўлланамаси маданият ва санъат коллежи, академик лицейлар, болалар музика ва санъат мактаблари анъанавий инстрментал бўлимлари, қашқар рубоби ва анъанавий хонадонилик ўқувчиларига ҳамда олий ўқув юрти “Музика таълими” йўналиши “Чолгу инстрментали ва ансамбли” факи учун қўшимча адабиёт сифатида фойдаланса бўлади. Мен мажкур услубий қўлламанни Ziyonet саёти порталига жойлаштиришига тавсия қиламан.

Гакризи:

Худайберганов С.К.

УрДУ Педагогика факультети

Музика таълими” кафедраси доценти

